

“BOLALAR XOR JAMOALARIGA REPERTUAR TANLASH VA MASHG‘ULOTLARNI TO‘G‘RI TASHKIL ETISH”

Alimuxamedova Zulkumor Azizovna

Sirdaryo viloyati, Guliston shahar

Guliston ixtisoslashtirilgan san’at maktabi

“Xor dirijyorligi” yo‘nalishi o‘qituvchisi

Annotatsiya: Ushbu maqolada bolalar xor jamoalari bilan ishlashda uchraydigan muammolar va ularning negizi ko‘rsatilgan. Ushbu masalarni hal qilishda olib borilgan tadqiqotlarga va olingan tajribalar natijalariga binoan, uchraydigan muammolarni echimi taklifi berilgan.

Kalit so‘zlar: xor, bolalar xor ijrochiligi, san’at maktabi, “Xor sinfi” darsi, “xor bo‘lib kuylash” faoliyat turi.

Xor musiqasi san’atning eng demokratik turlaridan biridir. Xor musiqasining tarbiyaviy va tashkiliy ishi juda keng va murakkabdir. Tarixdan xor musiqasi va bolalar uchun xor musiqasi mafkuraviy va ta’limiy vositasiga aylangan. Bolalar xori bilan ishslash, umuman olganda bolalarni musiqa va xor ijrochiligi bilan tanishtirish qo‘sishq aytish bilan bevosita bog‘liqdir. CHunki, bolalar qo‘sishq kuylashni erta ya’ni, kichik yoshdan boshlashadi. Bolalar ijrochiligida bolaning shaxsiyati, musiqiy qobiliyatları va ma’lumotlari, ovozga mos ravishda musiqiy tarbiya ham rivojlanadi. Bolalarda vokal ta’limi badiiy vositalar yordamida musiqiy talim va o‘quvchilarni rivojlantirish bilan bog‘liq.

“Xor sinfi” mutaxassisligi bo‘yicha ta’lim - tarbiya berishning asosiy maqsadi yosh avlodni istiqlol mafkurasi asosida sog‘lom, har tomonlama rivojlangan shaxs sifatida tarbiyalash va musiqa ta’limiga tayyorlashdan iboratdir. “Xor sinfi” o‘qituvchisi – xor jamoasi ishtirokchisining asosiy tarbiyachisi hisoblanadi. U butun

o‘quv-tarbiya jarayonining asosiy rahbari bo‘lib, bo‘lajak etuk xonanda-ijrochi sifatida shakllanishida hal qiluvchi ahamiyatga ega. Qo‘sinqchilik san’ati inson faoliyatining eng qiyin va murakkab turlaridan biri deb e’tirof etish mumkin.

Xor qo‘sinqlari bolalarni uyuştiradi va tarbiyalaydi hamda qo‘sinqchilik qobiliyatini shakllantirishga ko‘maklashadi.

Tanlanadigan repertuar juda muhim va katta ahamiyatga egadir. Repertuar quyidagi talablarga javob berishi kerak:

- Badiiy mazmun mohiyatiga ega;
- xor jamoasi yoshiga mos;
- kuylaydiga xor jamoasi imkoniyatlariga mos;
- bayramlar va tabiat fasllariga mos;
- har bir asarda bolalarning ma’lum bir qobiliyatlarini namoyon qilish uchun xorga ijobjiy turki berish va ularni g‘oyaviy shiorlarini birlashtirishi kerak.

Bolalar xor ijrochiligining muammolari asosan, xor rahbari o‘z maqsadi va vazifalarini tushunishlari, bolalar xori va ular bilan ishlashda muvofiq ish olib borishdadir. Bolalar o‘ziga xos ovozli apparatga ega. Bolalar ijrochiligidagi xor bo‘lib kuylashda intonatsiya, vokal texnikasi, ansambl ustida ko‘proq ishslash talab qilinadi. Bolalarda 5-6-7- sinflar davrida bola ovozi eng boy nuqtasida bo‘ladi. Bu vaqtda bolalarda ko‘p imkoniyatlar mavjud. Xor rahbari bu vaqtda repertuarga garmonik asarlar va oddiy polifonik asarlar kiritish mumkin.

Bizga ma’lumki, bolalar xorida kuylash davri asosan maktabgacha, maktab yoshida ya’ni, boshlang‘ich sinf, o‘rta sinf va yuqori sinf o‘quvchilaridan tashkil topgan bolalardir. Hozirgi kun negizida qaraydigan bo‘lsak, ko‘plab umumiyo‘rta ta’lim maktablarida, bolalar musiqa va san’at maktablari, viloyatlardagi ixtisoslashtirilgan san’at maktablaridagi xor jamoalari faoliyati xor ijrochiligini sifatli darajada yuksaltirish uchun biz kabi xor rahbarlari tomonidan xor jamoasi dasturidan o‘rin olgan asarlar bola ovoz imkoniyatiga mos bo‘lishi, asar qulayligi va ohangdorligi, hamda vokal xor malakasi jihatidan kuylashda intonatsion jihatdan qulay bo‘lmog‘i bolalar xor ijrochiligining muammolari echimlaridan biridir. Demak, xor jamoalari

rahbari o‘z sohasi bo‘yicha ilmiy salohiyatga ega va tajribali, o‘z ishlariga fidokorona yondashishlari lozim.

Bolalar xor ijrochiligidagi muammolardan biri xorda vokal mashqlarining to‘g‘ri bajarilishidadir. Ish jarayonida membryanada aniqroq namoyon bo‘lganda ovozlar soprano va altga ajratiladi. Bunda xor ovoz sozlash mashqlarida bolalar diafragma nafasidan foydalanishlari kerak.

Maktablarda tashkil qilingan xor jamoalari, ayniqsa kichik yoshdagagi bolalar xor jamoalari faoliyatini to‘la to‘kis rivoji, vokal mashqlarining to‘g‘ri tanlash tamoyillari va repertuarning bolalar ovoz imkoniyatiga mosligi, emotsiyonal kayfiyatni yaratish o‘z o‘zidan bolalar xor ijrochiligidagi muammolarni hal qilishga turtki bo‘ladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI: (REFERENCES)

1. Mirziyoev Sh. “Buyuk kelajagimizni mard va oliyjanob xalqiimiz bilan birga quramiz” .- T.: O‘zbekiston 2017.
2. N. Baxritdinova “O‘zbekiston bolalar xor madaniyati” Toshkent. 2002
- N. Sharafieva “ Xorshunoslik” Toshkent. 1987.

